

2021 йилда жамоатчилик фикри асосида шакллантирилган тadbirlарни молиялаштиришга йўналтирилган маблағлар ҳисоботи тўғрисида

e-qaror.gov.uz

14.02.2022



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI KENGASHINING QARORI

Uzuntumani, O'zbekistonko'chasi 7-uy. tel.: (+99876)44-73-545, uzun.t@exat.uz

2022 - yil 8 - fevral

VI-39-15-8-118-K/22

Uzun tuman hokimligi

2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman Moliya bolimi mudiri B.Baratovning hisoboti to'g'risida;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi □Budget ma'lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi □Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu haqidagi Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining 2021-yil 11-avgustdagi Mahalliy budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi VI-30-23-8-118-K/21-sonli qaroridagi namunaviy Nizomning 27-29-bandlari ijrosini ta'minlash yuzasidan tuman Moliya bolimi mudiri B.Baratovning hisoboti tinglanib, bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining 2021-yil 11-avgustdagi Mahalliy budget mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi №VI-30-23-8-118-K/21-sonli qaroridagi namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman hokimligi Moliya

3. 2021-yilda o'tkazilgan Tashabbusli budget jarayoni yakunlariga ko'ra ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lar bilan shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag'larga nisbatan bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg'armaga qayta tiklash miqdori to'g'risidagi ma'lumot 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi Moliya bo'limi mudiri (B.Baratov) hamda tuman G'aznachilik bo'linmasi (D.Orifjonov)lar shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag'larga nisbatan bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg'armaga belgilangan tartibda qayta tiklash va tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari matbuot kotibi (S.Boborajabov) tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda □Ochiq budget□ axborot portali hamda tumanning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va keyingi har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining mahalliy budgetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi A.Bakiyev zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



Tursunov B. B.

Халқ депутатлари Узун туман Кенгашининг
2022 йил 8 февралдаги
VI-39-15-8-118-К/22-сон қарорига
1-илова

**Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha
MA'LUMOT**

T/r	Ko'rsatkich nomi	Summa (ming so'm)
1.	Yil boshiga qoldiq	0,0
2.	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'*	1 525 000,0
3.	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar**	1 525 000,0
3.1.	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar	998 257,6
3.2.	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar	514 059,2
4	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar	12 683,2

2-jadval

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	ko'rsatkichlar		
			o'lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag'lar
1.	Hududiy ichki yo'llar	3	umumiy uzunligi	1403 metr	505 000,0
2.	Umumiyta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	2	soni	2 ta	225 000,0

3

3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	soni	1 ta	150 000,0
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	3	umumiy uzunligi	7200 metr	470 000,0
8.	Irrigatsiya tizimini ta'mirlash	1	soni	1 ta	175 000,0
Jami:		10	X	X	1 525 000,0

Izoh:

* Ushbu qatorda mazkur ma'lumotning 1-jadvaldagi Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga haqiqatda o'tkazilgan mablag'lar ustunining Jami ajratilgan mablag'lar qatoridagi mablag'lar aks ettiriladi.

** Ushbu qatorda mazkur ma'lumotning 2-jadvaldagi Ajratilgan mablag'lar ustunining jami qatoridagi mablag'lar aks ettiriladi.

4